

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.10.08  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AYRATOVA GULMIRAXON IQBOLJON QIZI**

**SIRDARYO YUQORI OQIMI IXTIOFAUNASI (ACTINOPTERYGII:  
TELEOSTEI)**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**G‘ayratova Gulmiraхon Iqboljon qizi**

Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasi (Actinopterygii: Teleostei) .....3

**Гайратова Гулмирахон Икболжон кизи**

Ихтиофауна верхней течения река Сырдарья (Actinopterygii: Teleostei).....21

**Gayratova Gulmirakhon Iqboljon kizi**

The ichthyofauna of the upper reaches of the Syr Darya (Actinopterygii: Teleostei).....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.10.08  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AYRATOVA GULMIRAXON IQBOLJON QIZI**

**SIRDARYO YUQORI OQIMI IXTIOFAUNASI (ACTINOPTERYGII:  
TELEOSTEI)**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1313 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nazarov Muxammadrasul Sharapovich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Kamilov Baxtiyor Ganiyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Umarov Farrux Ulug‘bekovich**  
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.10.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 23-may kuni soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu\_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№750-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 4-may kuni tarqatildi.  
(2026-yil 4-maydagi 5-raqamli reyestr bayonnomasi).



**I.I.Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, b.f.d., professor

**B.M.Sheraliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

**M.R.Shermatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyodagi biologik xilma-xillikni saqlash va kelajak avlodga yetkazish, mavjud ekotizimlar barqarorligini ta'minlash hamda sayyoramizning ortib borayotgan aholisini sifatli ozuqaga bo'lgan talabini qondirish bugungi kun tartibida turgan eng muhim masalalardan hisoblanadi. O'tgan asrdayoq sayyoramiz biologik resurslaridan foydalanishda ekstensiv yondashuvdan intensiv usulga o'tish zarurati yuzaga keldiki, bu holat biologik turlarning ekologiyasi, biologiyasi hamda ularni tarqalish xususiyatlarini chuqur o'rganish zaruriyatini ko'rsatib berdi. Antropogen omil ta'sirida hayvonot dunyosi yashash sharoitining salbiy tomonga o'zgarishi biologik xilma-xillikning kamayishi va hatto ayrimlarining yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Jahonda mavjud turli gidroekotizimlarda tarqalgan baliqlar bioxilma-xilligini saqlab qolish zahirida ularni faunistik tahlil qilish, hududlar bo'ylab qayta taqsimlanishi, turlarning bioekologik xususiyatlari, kamyob va yo'qolib ketish arafasidagi turlarni muhofaza etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan ochiq dengizlarga tutashmagan respublikamiz suv havzalari baliqlar xilma-xilligi nisbatan kambag'al bo'lib, ularning deyarli chorak qismini Orol havzasi endemiklari tashkil etadi. Bundan tashqari so'nggi yuz yillikda inson aralashuvi natijasida Orol havzasiga bir qator yangi baliq turlari kirib keldiki, bu ham mintaqa ixtiofauna qiyofasini keskin o'zgarishiga olib keldi. Introdutsent turlar hozirgi kunda umumiy faunaning uchdan bir qismini tashkil etgan holda, mahalliy turlarga ham o'zining ma'lum darajadagi salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, transformatsiyaga uchragan mintaqa baliqlari zamonaviy bioxilma-xilligini aniqlash va ularni asrash hamda gidroekotizimlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizdagi alohida suv havzalari ixtiofauna xilma-xilligini aniqlash va uni asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmi so'nggi yillarda kengayib bormoqda. Mana shunday tadqiqotlar natijasi o'laroq mintaqadagi mavjud kam sonli hamda muhofazaga muhtoj bo'lib turgan turlarning aniq holati shakllantirilmoqda, ularning o'ziga xos bioekologik xususiyatlariga doir ma'lumotlar yig'ib borilyapti va shulardan kelib chiqib baliqlar bioxilma-xilligini asrashga doir tadbirlar ishlab chiqilmoqda va hayotga joriy qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2019-2028 yillarda mavjud biologik xilma-xillikni saqlab qolishning ustuvor yo'nalishida "mintaqadagi biologik xilma-xillikni saqlab qolish, ulardan samarali tarzda foydalanish, ayniqsa muhofazaga muhtoj akvatoriylarni kengaytirish hamda ularni rivojlantirish, ekotizimlardagi mavjud ziddiyatlarni yumshatish, himoyaga muhtoj turlarni qayta tiklash" vazifalari belgilangan. Ta'kidlab o'tilgan vazifalardan kelib chiqib Sirdaryo yuqori oqimi baliqlar faunasini aniqlash, xususan uning zamonaviy tur tarkibini aniqlash, baliqlarning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish, daryo o'zani baliqlar xilma-xilligiga antropogen omilning ta'siri hamda ularning oqibatlarini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”<sup>1</sup> 1995-yil 6-maydagi 82-I-son qarori, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida” 2004-yil 3-dekabrda 710-II-son, “Ekologik nazorat to‘g‘risida” 2013-yil 27-dekabrda O‘RQ-358-son Qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>2</sup> 2017-yil 25-sentabrda PQ-3286-son qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni ro‘yobga chiqarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga asosan bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda tabiiy suv havzalari baliqlarining xilma-xilligini aniqlash, taksonomik tahlil etish, ularning morfologik hamda bioekologik xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqot ishlari bilan A. Günther (1859,1870), G.W.Fauler (1905), S.L.Hora (1932), C.L. Hubbs (1920,1960), Froese R., M. Kottelat (1997, 2006, 2012), Chavalit Vidthayanon (2008), B.A.Lyovin (1998, 2003, 2008, 2017, 2019), Nyingi, D.W. (2007, 2013, 2021) va kabi olimlarning tadqiqotlarida tanishish mumkin.

MDH mamlakatlaridagi suv havzalari ixtiofauna tarkibini tadqiq etish G.V.Nikolskiy (1956, 1974), V.P.Mitrofanov (1986, 1988, 1992), D.S.Aliyev va boshqalar (1994), F.V.Klimov (2007), V.M.Velichko (2009), J.M.Shaidullina (2009), F.Shakirova (2012), Z.Ermakhanov, I.Plotnikov (2012, 2019), E.I.Boznak (2003), A.P.Novosyolov (2000), V.B.Zhuravlev (2004), I.P.Melnichenko (2008), A.N.Matveev (2006), A.V.Vinnikov (2008), M.V.Mosyagina (2006), F.T.Amirbekova (2025), G.S.Ibrayeva (2024, 2025) kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston suv havzalari xususan Sirdaryo havzasi ixtiofaunasining turlar xilma-xilligi, morfologik va ekologik xususiyatlari, baliqchilikdagi ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar F.A.Turdakov (1952, 1963), G.K.Kamilov (1964, 1973), A. Boltaboyev (1971), M.Muxamediyev (1972), A.A.Amanov (1985), M.A. Abdullaev va D.U.Urchinov (1989), T.V.Salixov (1990), B.G.Kamilov (1990), B. Haqberdiyev (1994), M.F.Vundsettel (1994), U.T.Mirzayev (1994), M.SH.Nazarov (1995), E.E.Xurshut (2006), M.A.Yuldashov (2019), M.Sh. Atamuratova (2021), B.M.Sheraliev va Z.Peng (2021), Y.Q.Qayumova (2022), Quvvatov (2022), M.A.Muqimov (2024), D.I.Komilova (2025), D.E.Urmonova (2025), F.A.Umarov (2025) va boshqa olimlar tarafidan amalga oshirilgan.

Farg‘ona vodiysi bo‘yicha olib borilgan eng so‘nggi ixtiologik tadqiqot ishlari asosan Sirdaryo yuqori oqimining irmoqlari bo‘lmish Qoradaryo, Norin, So‘x,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” 1995-yil 6-maydagi 82-I-son qarori

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 25-sentabrda PQ-3286-son qarori

Isfayramsoy daryolari, suv omborlari va irrigatsion kanallar bo'yicha o'tkazilgan. Asosiy qismi Farg'ona vodiysida joylashgan Sirdaryo o'zanining yuqori oqimi baliqlar faunasini o'rganishga qaratilgan eng so'nggi tadqiqot ishi M.F.Vundsettel tomonidan 1994 yilda olib borilgan. Ushbu tadqiqotchi o'z ishini Sirdaryoning butun havzasi ya'ni yuqori, o'rta va quyi oqimlari bo'yicha olib borgan. Bundan tashqari Vundsettel Sirdaryo baliqlarining faunistik hamda ekologo-zoogeografik tahliliga ham urg'u bergan. Sirdaryo yuqori oqimi bo'yicha o'tkazilgan eng so'nggi ixtiologik tadqiqotga ham mana 30 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Bu vaqt davomida havza baliqlar faunasi bir qator o'zgarishlarga uchradi. Xususan ayrim avtohton turlar havzada uchramay qo'ydi, ayrimlarining areali o'ta qisqarib ketdi, allohton turlarning soni va egallagan areali kengaydi hamda ushbu havzada fan uchun yangi bo'lgan bir qator baliq turlari kashf etildi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Sirdaryo yuqori oqimida tarqalgan baliqlar faunasi xilma-xilligini aniqlash, ularni havza bo'ylab uchrash darajasi, baliqlarning morfologik hamda biologik xususiyatlarini ochib berish, havzadagi mavjud baliqlar faunasining zoogeografik tarqalish jihatlarini va faunistik komplekslar asosida ularni tahlil etish, kam sonli hamda muhofaza ostiga olinuvchi turlarni aniqlash va ularni asrab qolishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib amaliyotda qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya ishining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviyligi.** Ushbu tadqiqot ishi Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Farg'ona vodiysidagi mavjud fauna va florani himoya qilish hamda biologik xilma-xillikni asrash muammolari" yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sirdaryoning yuqori oqimida uchrovchi baliqlar faunasi taksonomik tarkibini aniqlash, ixtiofaunaning havza bo'ylab qayta taqsimlanish tendensiyasini asoslash, daryo baliqlarining morfologik hamda biologik xususiyatlarini ochib berish, kamyob hamda himoyaga muhtoj turlarni muhofaza qilishga doir tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofauna tarkibini aniqlash hamda qo'shni suv havzalari bilan qiyosiy tahlilini o'tkazish;

Sirdaryo yuqori oqimi baliq turlarining morfometrik ko'rsatkichlari tahlilini o'tkazish;

Asosiy qismi Farg'ona vodiysida joylashgan Sirdaryo yuqori oqimi o'zanida uchrovchi baliq turlarining biologik xususiyatlarini tadqiq etish;

Sirdaryo havzasi ixtiofaunasida yuz berayotgan transformatsiya natijasida ayrim mahalliy baliq turlarining havza bo'ylab qayta taqsimlanish tendensiyasini asoslab berish;

Ixtiofauna vakillarining Sirdaryo yuqori oqimi bo'ylab tarqalishiga oid geoaxborot ma'lumotlarini shakllantirish;

Havzadagi baliqlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash hamda kamayib borayotgan turlar muhofazasiga oid chora-tadbirlardan iborat tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti.** Sirdaryo yuqori oqimida tarqalgan baliqlar faunasi tadqiqot obykti sanaladi.

**Tadqiqotning predmeti.** Sirdaryo yuqori oqimida uchraydigan baliqlarning tur tarkibi, havza bo‘ylab tarqalish xususiyatlari, morfometrik, meristik ko‘rsatkichlari hamda bioekologik xususiyatlari tadqiqotning predmetini belgilaydi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur tadqiqot ishida zoologik, morfologik, faunistik, statistik, zoogeografik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sirdaryo yuqori oqimining zamonaviy ixtiofauna tarkibi tadqiq etilib, unda baliqlarning 7 turkum, 13 oila, 27 urug‘ga mansub 30 turi uchrashi aniqlangan;

ilk bor Sirdaryo yuqori oqimi havzasiga qarashli suv havzalari ixtiofaunasining o‘xshashlik darajalarini qiyosiy tahlili o‘tkazildi va unga ko‘ra Sirdaryo ixtiofaunasi Qoradaryo bilan 76% ga, Norin daryosi ixtiofaunasi bilan 56% ga, So‘x daryosi ixtiofaunasi bilan 37% ga hamda Qayroqqum suv ombori baliqlar faunasi bilan 67% ga o‘xshashligi asoslangan;

Sirdaryo yuqori oqimi baliqlarining morfometrik ko‘rsatkichlari ilk bor erkak va urg‘ochi individlar kesimida qiyosiy tahlil qilinib, turlar doirasida jinsga bog‘liq morfologik o‘zgaruvchanlik xususiyatlari aniqlangan;

*Sirdaryo havzasida Silurus glanis ning ikki xil ekomorfini uchrashi morfologik va etologik dalillar bilan asoslangan;*

Sirdaryo yuqori oqimida so‘nggi bir necha o‘n yil davomida *tadqiqotchilar tomonidan* qayd etilmay kelayotgan *Ballerus sapa* daryoning aynan ushbu qismida mavjudligi aniqlangan;

introdutsent turlarning ko‘rsatayotgan bosimi natijasida Sirdaryo havzasidagi *Abramis brama*, *Gobio lepidolaemus*, *Leuciscus aspius*, *Luciobarbus conocephalus* kabi mahalliy turlarning havza doirasidagi arealini keskin qisqarib ketganligi, *Alburnus taeniatus*, *Alburnus chalcoides*, *Ballerus sapa*, *Gobio lepidolaemus*, *Iskandaria kuschakewitschi*, *Leuciscus squaliusculus* kabi mahalliy turlarning esa tekislik zonasidan tog‘oldi-tekislik hamda tog‘oldi zonasiga ko‘chib o‘tayotganligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: Sirdaryo yuqori oqimi havzasida tarqalgan 7 turkum, 13 oila, 27 urug‘ga mansub 30 turidan iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan *Abramis brama*, *Alburnus chalcoides*, *Ballerus sapa*, *Carassius gibelio*, *Channa argus*, *Ctenopharyngodon idella*, *Cyprinus carpio*, *Esox lucius*, *Hypophthalmichthys molitrix*, *Leuciscus aspius*, *Luciobarbus conocephalus*, *Opsariichthys bidens*, *Pelecus cultratus*, *Rutilus lacustris*, *Sander lucioperca*, *Schizothorax eurystomus*, *Silurus glanis* kabi 17 ta baliq turining umumiy tavsifi, havza bo‘ylab tarqalishi hamda ularni muhofaza etish chora-tadbirlarini o‘z ichiga oluvchi kadastr yaratilgan;

kamyob hamda yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan *Ballerus sapa*, *Leuciscus aspius*, *Luciobarbus conocephalus* kabi turlarning havza bo‘ylab tarqalish koordinatalari belgilangan, monitoringi amalga oshirilgan hamda tabiiy zahiralardan barqaror va uzoq muddatli foydalanishga doir ma’lumotlar Milliy geoaxborot tizimiga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** amalga oshirilgan tadqiqot ishida an'anaviy hamda zamonaviy uslublarni qo'llanilganligi, shu bilan birga, tadqiqotlar davomida qayd etilgan natijalar respublika va xalqaro doiradagi ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilganligi, yetakchi davriy nashrlarda e'lon qilinganligi, tadqiqotning amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan e'tirof etilganligi hamda ularni amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy jihatdan muhimligi.** Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy jihatdan muhimligi Sirdaryo yuqori oqimida uchrovchi baliqlarning zamonaviy tur tarkibini aniqlanganligi, taksonomik jihatdan tahlil qilinganligi, baliq turlarining morfologik hamda bioekologik xususiyatlarini tadqiq etilganligi, ularning havza bo'ylab tarqalishiga doir geoaxborot ma'lumotlarni ishlab chiqilganligi va turlarning TMXI mezonlari asosida baholanganligi bilan tushuntiriladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikamizdagi xususan mintaqadagi suv havzalari baliqlar faunasi xilma-xilligining zamonaviy ko'rinishini shakllantirishda Sirdaryo yuqori oqimi baliq turlarining kadastrini yaratilganligi, undagi endemik, noyob hamda yo'q bo'lib ketish xavfi mavjud turlarni muhofazaga olish, baliqlarning tabiiy yashash joylarini saqlab qolish, baliq populyatsiyalariga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni kamaytirishni nazarda tutuvchi tavsiyalarni ishlab chiqilganligi va bu tavsiyalar baliq zahiralardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun asos bo'la olishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining tatbiq etilganligi.** Sirdaryo yuqori oqimi baliqlar faunasiga oid erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Sirdaryo yuqori oqimi baliqlar faunasi, ularning morfologik va bioekologik xususiyatlariga oid tadqiqot natijalaridan kelib chiqib "Gidrobiologiya" darsligi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 589436-sonli guvohnoma) nashr qilingan hamda "60811500-Zooinjeneriya (Baliqchilik)" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 2-iyuldagi №02/01-01-253-son ma'lumotnomasi). Natijada Oliy ta'lim muassasalarida 60811500-"Zooinjeneriya (Baliqchilik)" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasi tarqalishining geoaxborot bazasi va ularni aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi vazirligining Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Davlat kadastrini yuritish va geoaxborot tizimlarini joriy etish bo'limi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 03-03/1-03/3-7791-son ma'lumotnomasi). Natijada kadastr ma'lumotlarni geoaxborot tizimiga kiritishga asos bo'lgan, shuningdek, noyob va yo'q bo'lib ketish xavfi bo'lgan baliq turlarini muhofazaga olish, yashash muhitini saqlab qolish, ko'paytirish hamda himoya qilish

ishlarini tashkil etishga va mavjud tabiiy resurslardan samarali va turg'un foydalanishni ta'minlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining nashr etilganligi.** Dissertatsiya mavzusiga oid O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan davriy ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy va 1 tasi Scopus bazalarida indeksatsiyalangan xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Sirdaryo havzasi gidrologiyasi va ixtiofaunasini o'rganilishi" deb nomlangan. Ushbu bobning "Sirdaryo havzasining gidrografik va gidrologik tavsifi" deb nomlangan birinchi qismida Sirdaryo havzasining gidrografik hamda gidrologik tavsifi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Sirdaryo Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lib, uzunligi 2137 km, suv yig'ish havzasining maydoni 150100 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Farg'ona vodiysi hududida Sirdaryoning bir qator irmoqlari mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi daryogacha yetib kelmasdan o'z nihoyasiga yetadi. Vodiy hududidan chiqqach unga asosan Chirchiq, Ohangaron, Keles va Aris kabi irmoqlar quyiladi.

Bobning "Sirdaryo havzasi ixtiofaunasining tadqiq etilishi" deb nomlangan ikkinchi qismida Sirdaryo havzasi ixtiofaunasini o'rganilishiga oid olib borilgan ixtiologik tadqiqot ishlari hamda ularning natijalari bo'yicha tahlili keltirilgan. Sirdaryo havzasi bo'yicha ixtiologik tadqiqotlarning tarixi 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlariga borib taqaladi. O'sha davrdan boshlab to 20-asrning so'ngigacha havza ixtiofaunasini tadqiq etish bo'yicha A.A.Sazerpovi, A.I.Butakov, A.P.Fedchenko, K.F.Kessler, L.S.Berg, G.V.Nikolskiy, F.A.Turdakov, G'K.Komilov, M.F.Vundsettel, T.V.Salixov, B.G.Kamilov va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Eng so'nggi tadqiqot ishlari Sirdaryoning irmoqlari kesimida alohida tarzda olib borilgan. Masalan, Qoradaryo bo'yicha D.I.Komilova, Norin daryosi bo'yicha F.A.Umarov, Farg'ona vodiysi suv havzalari yalangbaliqlari bo'yicha Y.Q.Qayumova, So'x daryosi bo'yicha D.E.Urmonova va boshqalar ixtiologik tadqiqotlar olib borishgan.

Birinchi bobning **“Sirdaryo havzasi ixtiofaunasi shakllanishining tarixiy-geografik asoslari”** deb nomlangan uchinchi qismida Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasi shakllanishining tarixiy-geografik asoslari hamda havza baliqlarining ixtiofaunistik komplekslarga mansublik jihatlari kabi masalalar tahlil qilingan. Mintaqadagi yirik daryo bo‘lmish Sirdaryo uchta provinsiya hududidan oqib o‘tadi. Xususan, daryoning yuqori oqimi Tog‘li-Osiyo kenja oblastining Tarim provinsiyasiga mansub hisoblanadi. Sirdaryo yuqori oqimi havzasi ixtiofaunasi zamonaviy tarkibi 9 ta faunistik kompleksga mansubligi, ulardan 3 ta faunistik kompleks vakillari ushbu havzada avval qayd etilmagan bo‘lib, inson omili natijasida oxirgi yuz yillikda boshqa mintaqalardan kirib kelganligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning **“Baliqlarni o‘rganish uslublari va tadqiqot materiallari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Sirdaryo yuqori oqimi baliqlar faunasini tadqiq etishga mo‘ljallangan yo‘nalish, namuna yig‘ilgan joy va manbalar, manbalarni qayta ishlashda foydalanilgan ixtiologik usullarga doir ma‘lumotlar bayon etilgan. Tadqiqot uchun manbalar 2022-2025 yillar davomida Sirdaryo yuqori oqimining jami 26 ta nuqtasidan yig‘ilgan. Baliqlardan namunalar yig‘ishda uyalarining o‘lchami 4-6, 8-12 mm, uzunligi 3-4 va 8-10 metr bo‘lgan har xil to‘rlardan foydalanildi. Har bir ovlash joyidan namuna olish uchun bitta turdan ko‘pi bilan 10-12 dona baliq ovlandi. Ov davomida ortiqcha bo‘lgan namunalar yana suvga qaytarib yuborildi. Suv havzasidan tutilgan baliq namunalarini keyingi teksiruvlar uchun dastlab 4-10 % li formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Namunalar 2-7 kun ushbu eritmada saqlangach ularni uzoq muddatli saqlash uchun 70 % li etil spirti eritmasiga olindi. Har bir baliq turidan yig‘ilgan namunalarni morfologik hamda biologik jihatdan ko‘rsatkichlarini tadqiq etish ishlari Farg‘ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida laboratoriyasida amalga oshirildi.

Suv havzalaridan olingan baliq namunalarini aniqlashda L.S. Berg (1949), F.A. Turdakov (1963), Kottelat M. & Freyhof J. (2007), M. Kottelat (2012), A.M. Prokofiev (2017), I. Mirabdullaev va boshqalar (2020) hamda B. Sheraliyev & Z. Peng (2021) lar tomonidan ishlab chiqilgan aniqlagichlardan foydalanildi. Baliq turlarining sistematik holati Kaliforniya fanlar akademiyasi tomonidan yaratilgan Eshmeyer baliqlar katalogi (Eshmeyer’s Catalog of Fishes) bo‘yicha berildi

Baliqlarning morfometrik ko‘rsatkichlariga oid o‘lchov ishlari Kottelat & Freyhof (2007), Fricke (1984), Kottelat (1984), Pravdin (1966) lar taklif etgan uslublarni qo‘llab olib borildi. Baliq tana o‘lchami va og‘irligi orasidagi bog‘liqlik Froese (2006), Sparre & Venema (1998) lar taklif etgan usuldan foydalanib amalga oshirildi. Variatsiya va korrelyatsiya ko‘rsatkichlari G.F. Lakin, N.A. Ploxinskiy, G.V. Chudnovskaya va boshqalar qo‘llanmasida ko‘rsatilgan uslublar asosida tahlil qilindi. Turli yoshga mansub baliq namunalarining yillar bo‘yicha o‘sish jadalligini aniqlashda Eynar Lea tarafidan taklif etilgan retrospektiv ya‘ni qayta hisoblash usulidan foydalanildi. Baliqlarning ko‘payuvchanlik xususiyatlarini tadqiq etish umum ixtiologik metodlar asosida o‘tkazildi (I.Pravdin 1966).

Dissertatsiyaning **“Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasining taksonomik tarkibi va morfometrik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobi to‘rt qismdan iborat. Bobning **“Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasining tur tarkibi”** deb nomlangan

birinchi qismida Sirdaryo havzasi baliqlarining zamonaviy tur tarkibi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Sirdaryoning yuqori oqimida baliqlarning 7 turkum, 13 oila, 27 urug'ga mansub 30 turi uchrashi qayd etildi (1-rasm).



**1-rasm.** Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasi vakillarining original rasmlari: A- *A. chalcoides*; B- *A. taeniatus*; C- *B. sapa*; D- *R. ocellatus*; E- *E. Lucius*; F- *R. lacustris*; G- *L. aspius*; H- *L. conocephalus*; I- *Ch. argus*; J- *S. eurystomus*; K- *S. lucioperca*; L- *P. parva*; M- *H. leucisculus*; N- *O. bidens*.

Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasining zamonaviy nomenklatura bo'yicha taksonomik tarkibi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

**Turkum I. CYPRINIFORMES Bleeker, 1859 – Karpsimonlar**

**Oila 1. Acheilognathidae Bleeker, 1863 – Taxirbaliqlar**

1. *Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866) – Ko‘zli taxirbaliq

**Oila 2. Cyprinidae Rafinesque, 1815 – Karplar**

2. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782) – Kumush tovonbaliq

3. *Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758) – Zo‘g‘ora baliq

4. *Luciobarbus conocephalus* (Kessler, 1872) – Turkiston mo‘ylabdori

5. *Schizothorax eurystomus* (Kessler, 1872) – Qorabaliq

**Oila 3. Gobionidae Bleeker, 1863 – Qumbaliqlar**

6. *Abbottina rivularis* (Basilewsky, 1855) – Amur soxta qumbalig‘i

7. *Gobio lepidolaemus* (Kessler, 1872) – Turkiston qumbalig‘i

8. *Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846) – Amur chebakchasi

**Oila 4. Leuciscidae Bonaparte, 1835 – Oqqayroqlar**

9. *Abramis brama* Linnaeus, 1758 – Oqcha

10. *Alburnus chalcoides* (Güldenstädt, 1772) – Moybaliq

11. *Alburnus taeniatus* (Kessler, 1874) – Chiziqli tezsuzar

12. *Ballerus sapa* (Pallas, 1814) – Qorako‘z

13. *Leuciscus squaliusculus* (Kessler, 1872) – Sirdaryo oq chebagi

14. *Leuciscus aspius* (Linnaeus, 1758) – Oq qayroq

15. *Rutilus lacustris* (Pallas, 1814) – Sibir qizilko‘zi

16. *Pelecus cultratus* (Linnaeus, 1758) – Qilich baliq

**Oila 5. Nemacheilidae Regan, 1911 – Daryo yalangbaliqlari**

17. *Iskandaria kuschakewitschi* (Herzenstein, 1890) – Kushakevich yalangbalig‘i

18. *Triplophysa labiata* (Kessler, 1874) – Bir tusli yalangbaliq

19. *Triplophysa strauchi* (Kessler, 1874) – Dog‘li yalangbaliq

**Oila 6. Xenocyprididae Günther, 1868 – Sharqiy Osiyo chebak baliqlari**

20. *Ctenopharyngodon idella* (Valenciennes, 1844) – Oq amur

21. *Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855) – Qirraqorin

22. *Hypophthalmichthys molitrix* (Valenciennes, 1844) – Oq do‘ngpeshona

23. *Opsariichthys bidens* (Günther, 1873) – Uchlab

**Turkum II. SILURIFORMES Cuvier, 1817 – Laqqasimonlar**

**Oila 7. Siluridae Cuvier, 1816 – Laqqalar**

24. *Silurus glanis* Linnaeus, 1758 – Laqqa

**Turkum III. GOBIIFORMES Günther, 1880 – Buqabaliqsimonlar**

**Oila 8. Odontobutidae Hoese & Gill, 1993 – Chuchuk suv uyquchilari**

25. *Micropercops cinctus* (Dabry de Thiersant, 1872) – Eleotris

**Oila 9. Oxudercidae Günther, 1861 – Balchiqchi buqabaliqlar**

26. *Rhinogobius cf. lindbergi* (Berg, 1933) – Buqabaliq

**Turkum IV. ANABANTIFORMES Britz, 1995 – Ilonboshsimonlar**

**Oila 10. Channidae Scopoli, 1777 – Ilonboshlar**

27. *Channa argus* (Cantor, 1842) – Amur ilonboshi

**Turkum V. CYPRINODONTIFORMES Berg, 1940 – Karptishsimonlar**

**Oila 11. Poeciliidae Bonaparte, 1831 – Gambuziyalar**

28. *Gambusia holbrooki* (Girard, 1859) – Holbruk gambuziyasi

## **Turkum VI. PERCIFORMES Bleeker, 1863 – Olabug‘asimonlar**

### **Oila 12. Percidae– Olabug‘alar**

29. *Sander lucioperca* (Linnaeus, 1758) - Oq sla

## **Turkum VII. ESOCIFORMES -Cho‘rtanbaliqsimonlar turkumi**

### **Oila 13. Esocidae – Cho‘rtanbaliqlar oilasi**

30. *Esox lucius* (Linnaeus, 1758) – Cho‘rtan baliq

Sirdaryoning yuqori oqimida baliqlarning 7 turkum, 13 oila, 27 urug‘ga mansub 30 turi uchrashi qayd etildi. Qayd etilgan 13 oilaga mansub 30 ta turning 6 ta oilaga mansub 23 ta turi (76,6%) Cypriniformes turkumiga mansub bo‘lsa, 2 ta oilaga mansub 2 ta turi (6,6%) Gobiiformes turkumiga, qolgan Siluriformes, Perciformes, Cyprinodontiformes, Anabantiformes, Esociformes kabi turkumlarning 1 tadan oilaga mansub 1 tadan turi (3,3% dan) tarqalganligi aniqlandi. Turli yillarda turli tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan Sirdaryo yuqori oqimi, Qoradaryo, Norin daryosi, So‘x daryosi hamda Qayroqqum suv ombori ixtiofaunasining qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Unga ko‘ra Sirdaryo yuqori oqimida biz tomonimizdan 30 tur, Vundsettel (1994) tomonidan Sirdaryoning Farg‘ona vodiysi hududida 25 tur, Komilova tomonidan Qoradaryoda (2025) 28 tur, Umarov tomonidan Norin daryosida (2025) 23 tur, Urmonova tomonidan So‘x daryosida 14 tur, Sariqamish ko‘lida biz tomonimizdan 19 tur hamda Afanasyev, S.A (2020) tomonidan Qayroqqum suv omborida (Tojikistonning So‘g‘d viloyati, Sirdaryo yuqori oqimi) 27 tur baliqlar mavjudligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bo‘limi Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasining qiyosiy tavsifiga bag‘ishlangan. Sirdaryo yuqori oqimi havzasiga qarashli suv havzalari ixtiofaunasining o‘xshashlik darajalari Jakkor koeffitsiyenti orqali aniqlandi. Unga ko‘ra Sirdaryo ixtiofaunasi Qoradaryo bilan 76% ga, Norin daryosi ixtiofaunasi bilan 56% ga, So‘x daryosi ixtiofaunasi bilan 37% ga hamda Qayroqqum suv ombori baliqlar faunasi bilan 67% ga, Sariqamish ko‘li baliqlari bilan 63% ga o‘xshashligi aniqlandi. Qoradaryo ixtiofaunasi Norin bilan 70% ga, So‘x daryosi bilan 45% ga hamda Qayroqqum suv ombori ixtiofaunasi bilan 44% ga o‘xshashligi qayd qilindi (1-jadval).

1-jadval

### **Sirdaryo yuqori oqimi havzasi ixtiofaunasining Jakkor koeffitsiyenti bo‘yicha o‘xshashlik darajalari**

	<b>Sirdaryo</b>	<b>Qoradaryo</b>	<b>Norin</b>	<b>So‘x</b>	<b>Qayroqqum</b>	<b>Sariqamish</b>
Sirdaryo	1	0,76	0,56	0,37	0,67	0,63
Qoradaryo	0,76	1	0,7	0,45	0,44	0,5
Norin	0,56	0,7	1	0,48	0,32	0,38
So‘x	0,37	0,45	0,48	1	0,21	0,26
Qayroqqum	0,67	0,44	0,32	0,21	1	0,5
Sariqamish	0,63	0,5	0,38	0,26	0,5	1

Sirdaryo yuqori oqimida olib borilgan eng so'nggi tadqiqot 1994-yil Vundsettel tomonidan olib borilgan bo'lib, o'tgan 30 yildan ortiq davr mobaynida havza ixtiofaunasi qator o'zgarishlarga uchragan. Xususan biz tomonimizdan daryoning yuqori qismidan qayd etilgan *Alburnus chalcoides*, *Ballerus sapa*, *Esox lucius*, *Leuciscus squaliusculus*, *Micropercops cinctus*, *Triplophysa labiate* va *Triplophysa trauchii* kabi turlar Vundsettel tomonidan daryoning aynan shu qismidan qayd etilmagan. Va aksincha Vundsettel tomonidan qayd etilgan *Hypophthalmichthys nobilis* va *Sabanejewia aralensis* biz tomonimizdan qayd etilmadi.

Uchinchi bobning uchinchi va to'rtinchi bo'limlari "Sirdaryo baliqlarining morfometrik ko'rsatkichlari" hamda "Sirdaryo yuqori oqimi baliqlarining umumiy morfologik tahlili" deb nomlanadi. Ularda Sirdaryo baliqlarining morfometrik ko'rsatkichlari erkak va urg'ochi kesimida keltirilgan hamda ularning tahlili o'tkazilgan. Xususan, baliq turlarining jinslar kesimida morfometrik ko'rsatkichlarini o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (CV) tahlil qilingan bo'lib, baliq turlarining qaysi ko'rsatkichlarida yuqori hamda qaysi ko'rsatkichlarida past darajadagi o'zgaruvchanliklar namoyon bo'lgani qayd etilgan.

Dissertatsiyaning "Sirdaryo yuqori oqimi baliqlarining biologik xususiyatlari va muhofaza masalalari" deb nomlangan to'rtinchi bobi besh bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi "Sirdaryo yuqori oqimi baliqlarining reproduktiv ko'rsatkichlari" deb nomlangan. Baliqlar gonadasining hajmi hamda vazni bo'yicha ko'rsatkichlarining o'zgarishi ularni reproduktiv jihatdan yetilganligini aniqlashning muhim shartlaridan sanaladi.


Sirdaryo yuqori oqimida tarqalgan *Alburnus chalcoides*, *Alburnus taeniatus*, *Carassius gibelio*, *Channa argus*, *Hemiculter leucisculus*, *Opsariichthys bidens*, *Rutilus lacustris* va *Schizothorax eurystomus* urg'ochi individlarining gonadalar og'irligi, jinsiy yetuklik koeffitsiyenti, gonado-somatik indeksi (GSI), individual va nisbiy mahsuldorlik ko'rsatkichlari kabi muhim reproduktiv xususiyatlari tadqiq etildi. Unga ko'ra eng yuqori jinsiy yetuklik koeffitsiyenti va gonado-somatik indeksiga *Rutilus lacustris* (o'rtacha 18,3 va 24,3; mos ravishda) hamda *Alburnus taeniatus* (o'rtacha 13,9 va 19,4; mos ravishda) ega bo'lgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichga *Channa argus* (o'rtacha 2,8 va 3,2; mos ravishda) ega bo'lib, qolgan turlar mos ravishda o'rtacha 5,3 dan 13,9 gacha va 7,4 dan 19,4 gacha ko'rsatkichlarni namoyon etishdi (2-jadval). Ushbu ko'rsatkichlarning *Ch. argus* da eng past darajada bo'lishi ularning o'ziga xos ko'payishi bilan izohlanadi, ya'ni *Ch. argus* boshqa turlardan farqli ravishda tuxumini bir necha bo'lakka bo'lib qo'yadi va har bir tuxum qo'yish oralig'i nisbatan uzoqroq muddatni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib ular gonadasidagi ushbu mavsumda tashlanadigan tuxumlar bir paytda yetilmaganligi sababli yuqoridagi ko'rsatkichlar boshqa turlarga nisbatan ancha past darajada bo'lmoqda.

**Sirdaryo yuqori oqimida tarqalgan urg'ochi baliqlarning yetuklik koeffitsiyenti va gonado-somatik indeksi (GSI) ko'rsatkichlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b> <b>Tur</b>	<b>Tana uzunligi, m (min-max/o'rtacha)</b>	<b>Tana vazni, g (min-max/o'rtacha)</b>	<b>Gonadalar og'irligi (min-max/o'rtacha)</b>	<b>Yetuklik koeffitsiyenti, % (min-max/o'rtacha)</b>	<b>Gonado-somatik indeks, % (min-max/o'rtacha)</b>
<i>Alburnus chalcoides</i>	<u>170-234,0</u> 206,6	<u>32-130</u> 94,8	<u>1,54-15,18</u> 6,8	<u>4,81-11,7</u> 7,17	<u>5,7-14,94</u> 10,21
<i>Alburnus taeniatus</i>	<u>55,4-84,8</u> 67,5	<u>2,0-6,0</u> 3,7	<u>0,24-0,85</u> 0,51	<u>12,2-14,1</u> 13,9	<u>15,7-20,5</u> 19,4
<i>Carassius gibelio</i>	<u>10,42-15,37</u> 13,34	<u>28-71,5</u> 44	<u>2,4-6,5</u> 3,9	<u>8,57-9,09</u> 8,86	<u>9,3-13,4</u> 11,4
<i>Channa argus</i>	<u>361,0-398,2</u> 381,7	<u>393-508</u> 451,7	<u>7,1-16,8</u> 12,5	<u>1,8-3,3</u> 2,8	<u>2,1-3,9</u> 3,2
<i>Hemiculter leucisculus</i>	<u>138,3-235,0</u> 178,2	<u>26,0-118,0</u> 52,0	<u>2,3-19,8</u> 6,6	<u>5,4-18,0</u> 11,5	<u>6,8-25,3</u> 15,8
<i>Opsariichthys bidens</i>	<u>138,8-166,7</u> 148,2	<u>28,0-51,0</u> 37,6	<u>0,57-3,17</u> 2,0	<u>2,04-6,22</u> 5,32	<u>2,6-8,34</u> 7,43
<i>Rutilus lacustris</i>	<u>177,0-203,0</u> 187,9	<u>65,0-104,0</u> 85,0	<u>10,9-20,0</u> 15,5	<u>16,7-19,2</u> 18,3	<u>20,9-25,0</u> 24,3
<i>Schizothorax eurystomus</i>	<u>246,6-321,8</u> 294	<u>146-349</u> 263,4	<u>7,02-50,96</u> 27,6	<u>4,8-14,6</u> 10,6	<u>5,57-19,3</u> 13,1

Baliqlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari orasida eng yuqori mutlaq mahsuldorlikka *Carassius gibelio* (o'rtacha 43796 dona) va *Hemiculter leucisculus* (o'rtacha 24253,7 dona) ega bo'lishdi. Eng past mutlaq mahsuldorlik ko'rsatkichi *Alburnus taeniatus* (o'rtacha 396,29 dona) va *Opsariichthys bidens* (o'rtacha 4954 dona) da kuzatildi. Yuqori nisbiy mahsuldorlik esa *Carassius gibelio* (o'rtacha 1277 dona/g) va *Hemiculter leucisculus* (o'rtacha 687,5 dona/g) da kuzatilgan bo'lsa, eng past nisbiy mahsuldorlikka *Channa argus* (o'rtacha 12,96 dona/g) va *Schizothorax eurystomus* (o'rtacha 29,07 dona/g) ega bo'ldi. *Alburnus taeniatus* urg'ochilari kichik o'lchamli bo'lishiga qaramay o'rtacha nisbiy serpushtlikni (o'rtacha 152,42 dona/g) namoyon etgan.

